IJTIMOIY TARMOQLARDAGI AKSIOLINGVISTIKA: TIL, QADRIYAT VA VIRTUAL MULOQOTNING O‘ZARO MUNOSABATI

Boymatova Dilnoza Baxtiyorovna
dotsenti, f.f.d.(PhD)
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlardagi til birliklari orqali qadriyatlarning ifodalanishi, ularning aksiologik mazmun kasb etish jarayoni va virtual muloqotda til vositalarining yangi semantik xususiyat kasb etishi tahlil qilinadi. Aksiolingvistika – til va qadriyat munosabatini o‘rganuvchi yangi yo‘nalish sifatida, internet kommunikatsiyasida paydo bo‘layotgan yangi ma’no qatlamlarini tahlil etishda muhim metodologik asos vazifasini bajaradi. Maqolada o‘zbek tarmoq tilida (xususan, Telegram, Instagram va TikTok platformalarida) ijtimoiy, madaniy va axloqiy qadriyatlarning til orqali ifodalanish usullari ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda qadriyatlarning transformatsiyasi, yangi leksik birliklar va ularning aksio-semantik tabiatiga oid ilmiy kuzatishlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: aksiolingvistika, qadriyat, ijtimoiy tarmoq, virtual muloqot, internet tili, aksiosemantika, madaniyat, kommunikatsiya.

Abstract: This article analyzes the expression of values through linguistic units in social networks, the process by which they acquire axiological meaning, and the emergence of new semantic features of language in virtual communication. As a new field studying the relationship between language and values, axiolinguistics serves as an important

methodological basis for analyzing the new layers of meaning appearing in internet communication. The article demonstrates how social, cultural, and moral values are expressed through language in Uzbek network discourse (particularly on platforms such as Telegram, Instagram, and TikTok). It also presents scientific observations on the transformation of values in social networks, the formation of new lexical units, and their axio-semantic nature.

Keywords: axiolinguistics, values, social network, virtual communication, internet language, axio-semantics, culture, communication.

Аннотация: В данной статье анализируются способы выражения ценностей через языковые единицы в социальных сетях, процесс приобретения ими аксиологического содержания, а также формирование новых семантических свойств языка в условиях виртуального общения. Аксиолингвистика, как новое направление, изучающее взаимосвязь языка и ценностей, служит важной методологической основой для анализа новых смысловых слоёв, возникающих в интернет-коммуникации. В статье показаны способы выражения социальных, культурных и нравственных ценностей через язык узбекского сетевого общения (в частности, на платформах Telegram, Instagram и TikTok). Кроме того, приводятся научные наблюдения о трансформации ценностей в социальных сетях, появлении новых лексических единиц и их аксио-семантической природе.

Ключевые слова: аксиолингвистика, ценность, социальная сеть, виртуальное общение, язык интернета, аксиосемантика, культура, коммуникация.

So‘nggi yillarda inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida raqamli texnologiyalar chuqur kirib kelmoqda. Xususan, ijtimoiy tarmoqlar - insonlar o‘rtasidagi muloqot, axborot almashinuvi va qadriyatlar tizimini shakllantirishda muhim kommunikativ maydonga aylandi. Bu jarayonda til faqat aloqa vositasi emas, balki madaniy va ijtimoiy qadriyatlarni ifodalovchi va uzatuvchi asosiy mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda. Aksiolingvistika fanining asosiy maqsadi - til orqali qadriyatlarni tahlil qilish, ularning leksik, semantik va pragmatik darajada qanday ifoda topishini o‘rganishdir. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy tarmoqlar tili aksiolingvistik tahlil uchun boy material hisoblanadi, chunki bu makonda so‘z, ibora va belgilar o‘zining an’anaviy ma’nosidan tashqari yangi qadriyat yuklamasini oladi. Masalan, “like”, “follow”, “trend”, “repost” kabi so‘zlar o‘zbek tarmoq tilida nafaqat texnik tushunchani, balki ijtimoiy maqom, jamiyatda tan olinishi yoki axloqiy qadriyatni ifodalash vositasiga aylangan. Demak, ijtimoiy tarmoq tili qadriyatlarning zamonaviy ko‘rinishini, ya’ni virtual aksiologiyani shakllantiradi.

Aksiolingvistika (yunoncha axios - “qadriyat”, lingua - “til”) tilshunoslikning nisbatan yangi yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u til orqali qadriyatlarning qanday ifoda topishi, uzatilishi va qabul qilinishini o‘rganadi. Bu yo‘nalish tilni nafaqat aloqa vositasi, balki jamiyatning axloqiy, estetik, madaniy va ijtimoiy qadriyatlarini ifodalovchi tizim sifatida talqin qiladi. Aksiologik tilshunoslik ham antropotsentrik xarakterga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Borliqdagi narsa-buyum, voqea-hodisalar yolg„iz inson ongidagina qadriyat sifatida muhimlik kasb etadi [2:526]. Aksiolingvistik tadqiqotlarda til axloqiy–madaniy mazmunni tashuvchi belgilar tizimi sifatida ko‘riladi. Tilning har bir birligi (so‘z, ibora, maqol, mem, emoji va h.k.) ma’lum bir qadriyatni bildirishi yoki unga qarshi turuvchi antiqadriyatni ifodalashi mumkin. Aksiolingvistika bir necha fanlar bilan uzviy bog‘liq:

Falsafa – qadriyat tushunchasining mohiyatini belgilaydi;

Madaniyatshunoslik – qadriyatlarning tarixiy shakllanishini tushuntiradi; Sotsiologiya - qadriyatlarning jamiyatdagi ijtimoiy rolini tahlil qiladi;

Lingvistika – qadriyatlarning til orqali ifodalanish mexanizmini o‘rganadi.

Bu fanlar integratsiyasi natijasida aksiolingvistika madaniy semantika, diskurs tahlili va sotsiolingvistika bilan ham kesishadi. Masalan, so‘zlarning ijtimoiy konnotatsiyasi (“zamonaviy”, “eskicha”, “milliy”, “liberal”) orqali jamiyatdagi qadriyatlar tizimini aniqlash mumkin. Tilshunos olimlarning fikricha, aksiolingvistika tilning faqat lingvistik emas, balki aksiosemantik (qadriyatli ma’nolarni shakllantiruvchi) xususiyatlarini ham o‘rganadi. Shunday qilib, bu yo‘nalish tilni qadriyatlar olamining oynasi sifatida talqin qiladi. “Qadriyatlar inson hayotining muhim qismlaridan biri bo‘lib, ularning shakllanishi va rivojlanishi jamiyat va shaxsiy hayotda katta ahamiyat kasb etadi. Bu qadriyatlar inson faoliyatining me'zonlari va unda amalga oshiriladigan harakatlarni belgilaydi” [1:15]

XXI asrda til taraqqiyotining yangi bosqichi - virtual til makoni vujudga keldi. Ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, Instagram, TikTok, X (Twitter), Facebook) tilning tez o‘zgaruvchi, dinamik shaklini yaratdi. Bu makonda so‘zlar ko‘pincha emosional, ironik yoki baholovchi ma’nolarni oladi.

Aksiolingvistik nuqtai nazardan, ijtimoiy tarmoqlarda quyidagi qadriyat turlari til orqali faol ifodalanadi:

1. Shaxsiy qadriyatlar. “Men kimman?”, “Men nima uchun bunday yashayman?” kabi savollarga javob sifatida postlar, selfilar, “motivatsion iqtiboslar” paydo bo‘ladi. Masalan: “Har kuni o‘zingning eng yaxshi versiyang bo‘l.” Bu ibora o‘zlikni qadrlash (self-respect) va individualizm qadriyatini ifodalaydi.
2. Ijtimoiy qadriyatlar. Jamiyatda birdamlik, yordam, hamdardlik kabi qadriyatlar ham tarmoq tilida ifodalanadi: “Bir-biringizni asrang”, “Yordam kerak bo‘lsa, yozing”,“Duo so‘rayman”. Bu kabi birliklar tarmoq tilida ijtimoiy empatiya va milliy mehr-oqibat qadriyatlarini aks ettiradi.
3. Estetik va madaniy qadriyatlar. Instagram va TikTok tarmoqlarida estetik qadriyatlar - go‘zallik, zamonaviylik, moda, dizayn, ovoz, vizual uyg‘unlik orqali ifodalanadi. Tarmoqdagi “trend”, “style”, “aesthetic” kabi so‘zlar yangi estetik qadriyat mezonlarini belgilaydi.

Shunday qilib, ijtimoiy tarmoq tili qadriyatlar tizimining ko‘zgusi bo‘lib, unda ijobiy va salbiy aksio birliklar bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘ladi. Virtual muloqot - bu real muloqotning raqamli muhitda qayta shakllangan ko‘rinishidir. “Virtual aloqa matn, audio va video xabarlardan foydalangan holda kompyuterlar va mobil qurilmalar orqali muloqot qilishni o'z ichiga oladi. Bunga ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va raqamli aloqaning boshqa shakllari kiradi” [3]. Unda ishtirokchilar so‘zlashuv, yozishuv, emoji, stiker, gif va memlar orqali o‘z hissiyotlarini, fikrlarini va qadriyatlarini ifoda etadilar. Shu jarayonda qadriyatlar tildagi yangi ifoda vositalari orqali o‘zgaradi, ba’zida esa yangi aksio birliklar paydo bo‘ladi. Masalan, “❤” emoji’si tarmoq tilida nafaqat muhabbat yoki duo ma’nosini, balki hurmat, qo‘llab-quvvatlash, mehr qadriyatlarini ifodalovchi universal belgiga aylangan. Shuningdek, “🔥” belgisi ko‘pincha “zo‘r”, “a’lo”, “trendda” ma’nolarida ishlatilib, zamonaviylik va muvaffaqiyat qadriyatini bildiradi. Virtual muloqotda tilning emotiv (hissiy) xususiyati kuchayadi. Bunda so‘zning semantik yadrosi emas, balki uning hissiy konnotatsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, “go‘zal” so‘zi real hayotda estetik qadriyatni anglatsa, tarmoqlarda “go‘zal joy”, “go‘zal post”, “go‘zal fikr” kabi shakllarda kengaytirilgan aksiologik ma’noda qo‘llanadi. Bundan tashqari, virtual makonda “soxta qadriyatlar” ham shakllanmoqda. “Layklar” soni, “ko‘ruvlar” miqdori yoki “obunachilar” soni ko‘pincha shaxsning ijtimoiy qadri sifatida baholanmoqda. Bu holatda qadriyatlar mazmuniy emas, ko‘rsatkichli (statistik) shaklga o‘tadi. Shuning uchun zamonaviy aksiolingvistika virtual qadriyatlar va haqiqiy qadriyatlar o‘rtasidagi chegarani aniqlashni muhim ilmiy vazifa

sifatida belgilaydi. Virtual muhitda qadriyatlarning o‘zgarishi quyidagi jarayonlar orqali kechadi:

Semantik qisqarish – so‘zlarning ma’nosi soddalashadi (“brat”, “siss”, “top”);

Metaforik kengayish – oddiy so‘z yangi ijtimoiy ma’no kasb etadi (“trendda bo‘lish”, “viral post”); Aksiologik inversiya – qadriyat ma’nosining teskari talqini (“kulish uchun jiddiy mavzularni memga aylantirish”).

Aksiolingvistik yondashuv ijtimoiy tarmoqlardagi tilni faqat kommunikativ vosita sifatida emas, balki qadriyatlarni ifodalovchi, o‘zgartiruvchi va shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Virtual makon - bu real jamiyatning lingvistik va aksiosemantik modeli bo‘lib, unda milliy, diniy, estetik va ijtimoiy qadriyatlar raqamli ifodasini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Madraximov J. Qadriyat tushunchasi, mohiyati va uning klassifikatsiyalash// Central Asian journal of academic research sjif. 5.441.-2024.- b. 15-22.
2. Saydaliyeva M. Aksiolingvistik baho tushunchasiga oid ilmiy qarashlar tahlili // Volume 3 Issue 1 02.06.2025https:/ phoenixpublication. net/ Online ISSN:3030-3494. – B.526-530.